



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT
KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USLUBIYOTI

Akmaljon O'rino

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Mamatojieva Sarvinoz

Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi innovatsiyalar rivojlanayotgan davrda sanoat korxonalarini innovatsion boshqarishda nazariy va amaliy jihatdan o'rghanish va asosiy kamchiliklarini bartaraf etishdan iborat.

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "...biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz"¹, deb aytgan fikrlari keyingi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy muammo sifatida baholanishidan dalolat beradi.

Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini baholash uslubiyotlarini tahlil qilishdan avval samaradorlik tushunchasining mazmuniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Tahlillarga ko'ra, samara tushunchasi lotincha "Effectus" so'zidan olingan bo'lib, har qanday xatti-harakatning yakuniy natijasini ifodalaydi. Samaradorlik tushunchasi esa iqtisodiy kategoriya

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - <https://aza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>



sifatida ko‘zlangan maqsadlarga erishishning nisbiy ko‘rsatkichlarini tavsiflaydi. Aksariyat holatlarda korxonalar boshqaruvi amaliyotida uning samaradorligi ko‘rsatkichini baholashda erishilgan natija va xarajatlar o‘rtasidagi nisbatga asoslanadi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichni baholashning tizimli yondashuvida esa kutilayotgan va erishilgan natijalar o‘zaro qiyosiy taqqoslangan holda amalga oshiriladi². Yuqorida keltirilgan samaradorlik ko‘rsatkichini baholash uslubiyotlari turli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini baholashda qo‘llaniladi. Shuningdek, ular foydalanish uchun osonligi bilan ajralib turadi.

Korxona innovatsion boshqaruvi samaradorligini baholash nisbatan murakkabroq bo‘lib, bunda korxonaning innovatsion faoliyati natijalari, ya’ni korxona boshqaruvi amaliyotida ilmiy tadqiqot natijalarida foydalanish, yangi mahsulotni ishlab chiqarish, ishlab chiqarishni tashkil etishda yangi raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga shakllangan korxona ixtiyorida qolgan qo‘shimcha foydani aniqlash mumkin bo‘ladi.

Tahlillarga ko‘ra, aksariyat ilmiy tadqiqotlarda korxona innovatsion boshqaruvi samaradorligini baholashda innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi bilan innovatsion faoliyat natijasida erishilgan natijalar qiyosiy tahliliga asoslanadi³. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mazkur yondashuv asosida korxona innovatsion boshqaruvi yoki uning innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari samaradorligini baholash jarayonida joriy davrdagi korxonaning innovatsion va investitsion faoliyatiga baho berish mumkin bo‘ladi. Ushbu holat korxonaning innovatsion boshqaruvi samaradorligini to‘liq baholash imkonini bermaydi. Chunki investitsiyalarning qoplanish muddati korxona innovatsion faoliyati yuqori natjalarga erishgan holdagina 1-3 yil ichida qoplanishi mumkin, bu esa innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan xarajatlarni qoplanish muddatlarini o‘zida aks ettiradi.

Sanoat korxonalari boshqaruvi amaliyotida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish faoliyatini tubdan o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Jumladan,

² Евдокимова Т.В. Анализ генезиса теоретических подходов к понятию и оценка эффективности // Вестник Томского государственного университета. – 2013. - № 3. – С. 22-27

³ Гонин В.Н., Кашурников А.Н. Совершенствование методики оценки эффективности инновационной деятельности предприятий электроэнергетики региона в условиях ограниченных ресурсов // Вестник Забайкальского государственного университета. – 2013. № 3 (94). – с. 124-131



ishlab chiqarish jarayonlarida moddiy resurslarga xarajatlar hajmini kamaytirgan holda, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi ko'rsatkichini oshiradi. Tahlillarga ko'ra, korxona boshqaruvi samaradorligi ko'rsatkichiga amaliyatga joriy etilayotgan innovatsion boshqaruv usullarining risklilik darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, korxona boshqaruvida raqamli texnologiyalarni qo'llashdagi risklilik darajasini to'g'ri baholagan holda tegishli qarorlar chiqarish lozim bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati darajasi va uning raqobatbardoshligi holatini baholashda innovatsion faoliyat ko'rsatkichlaridan keng foydalaniladi. Korxona boshqaruvida innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin bo'ladi:

- birinchi, korxonaning innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlari - bunda mahsulotning fan sig'imkorligi darajasini baholashga erishiladi. Ushbu ko'rsatkichni baholashda mahsulotni sotishdan olingan daromad hajmiga nisbatan korxonaning ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalariga (ITTKI) qilgan xarajatlarining ulushi inobatga olinadi. Masalan, innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish, nou-xaularni joriy etish, ularni ishlab chiqish, loyihalashtirish, yangi ishlanmalarni litsenziyalash, patentlashtirish kabi korxonaning ITTKI xarajatlari hisoblanadi;
- ikkinchi, bu korxona innovatsion faoliyati uchun xos bo'lgan trendlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar - korxona innovatsion faoliyatining dinamik xususiyatlari baholanadi. Bunda yangi raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish yoki ularni o'zlashtirish, yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorgarlik ko'rish uchun sarflangan vaqt, shuningdek, yangi mahsulotni ishlab chiqarishning siklik hayotiyligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi;
- uchinchi, korxona boshqaruvi, jumladan uning faoliyatining yangilanish ko'rsatkichlar. Ushbu ko'rsatkichni tavsiflashda quyidagilardan foydalaniladi: korxona boshqaruvi va uning faoliyatiga kiritilgan yangiliklar soni, o'zlashtirilgan va uzatilgan innovatsiyalar soni, korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot



portfelining yangilanish dinamikasi, ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulot (tovar va xizmatlar) hajmi, eksport hajmida innovatsion mahsulotning ulushi;

- to‘rtinchi, korxonaning innovatsion faoliyati bo‘yicha tarkibiy ko‘rsatkichlari hisoblanib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: korxona tashkiliy tuzilishida ilmiy-texnik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar soni va ularning tarkibi; yangi texnologiyalar yoki mahsulotlarni ishlab chiqarishda hamkor korxona va tashkilotlar soni; korxonada ITTKI bilan band bo‘lgan yollanma ishchilar soni va tarkibi; korxonada ijodiy tashabbus ko‘rsatish maqsadida tuzilgan vaqtinchalik ilmiy-muvaqqat guruh yoki jamoalar soni va uning tarkibi (1.3-jadval).

1.3-Jadval

Sanoat korxonalari boshqaruv samaradorligini baholashning sub`yektiv maqsadlari

Boshqaruv sub`yekti	Baholash maqsadi
Korxona	<p>Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi bo‘yicha dasturlari va strategiyasiga muvofiq amaliyotga joriy etilayotgan innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash;</p> <p>Sanoat korxonalarining boshqaruv amaliyotida joriy etilayotgan innovatsion loyihalarning uning raqobatbardoshligi ko‘rsatkichiga ta’sirini baholash;</p> <p>Sanoat korxonalarini tomonidan amaliyotga joriy etilishi rejorashtirilayotgan innovatsion loyihalarning korxona egaligidagi cheklangan innovatsion resurslarga mosini tanlash</p>
Korxonaning bozordagi kontragentlari	<p>Sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini baholash orqali innovatsion loyihani amaliyotga joriy etish bo‘yicha mos bo‘lgan hamkorlarni topish</p>



Korxona raqobatchilari	Sanoat korxonalari tomonidan joriy etilishi rejalashtirilayotgan innovatsion loyihalarni boshqa raqobatchi korxonalarining innovatsion strategiyalari va ularda amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalardan farqli, shuningdek, ustunlik jihatlarini aniqlash
Investitsion tashkilotlar	Innovatsion loyiha amalga oshirilayotgan sanoat korxonalarining investitsion samaradorligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida belgilangan muddatlarda korxona innovatsion faoliyatiga kapital quyilmalarini shakllantirish
Davlat boshqaruvi organlari	Innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish bo'yicha subsidiyalash amaliyotining maqsadliliginu ta'minlash; Davlat tomonidan korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan preferensiyalarni taqdim etish orqali mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish

Tahlillarimiz ko'rsatishicha, sanoat korxonalari boshqaruvi faoliyatini baholash amaliyoti boshqaruvi sub`yekti va uning maqsadidan kelib chiqqan holda turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Sanoat korxonalari boshqaruvi faoliyatini baholashning boshqaruvi sub`yekti bo'yicha maqsadlarini tahlil qilish asosida milliy iqtisodiyot tarmog'idagi ma'lum bir korxonaning innovatsion boshqaruvi amaliyotini rivojlantirish orqali butun mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish mumkinligi aniqlandi. Raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyati yurituvchi korxonalar tomonidan bozorda yuqori foydani olishga bo'lgan intilish kuchli bo'lganligi sababli raqobatchi korxonalar tomonidan ham innovatsion boshqaruvi amaliyotini joriy etish hisobiga kumulyativ samaraga erishiladi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan sanoat korxonalari innovatsion raqamli boshqaruvini tashkil etish asosida erishiladigan samaradorlik ko'rsatkichlarini turli guruhlarga ajratishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan,



innovatsion boshqaruv nazariyalarining shakllanishining ilk bosqichlarida korxona innovatsion boshqaruvi natijasida iqtisodiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy samaradorlikka erishish mumkinligi asoslangan. Keyinchalik jahonda global iqlim o‘zgarishlari avj olishi natijasida mahsulot (tovar va xizmatlar) ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishning ekologik samaradorligi ko‘rsatkichlari ham baholana boshladi.

Tahlillarimizga ko‘ra, sanoat korxonalari boshqaruvining iqtisodiy va ilmiy-texnik samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholash moddiy ahamiyat kasb etganligi hisobiga nisbatan oson bo‘lib, bunda innovatsion loyihani amaliyatga joriy etishning resurs ta’minoti va natijaviy ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga asoslaniladi. Shuningdek, sanoat korxonalari boshqaruvining ijtimoiy va ekologik samaradorligi ko‘rsatkichini baholash bir muncha murakkab bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar nomoddiy ahamiyatga ega ekanligi sababli, sifat ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar bilan baholanadi. Xususan, ijtimoiy samaradorlik xodimlarning ish haqi, ish o‘rinlari sonining ortishi bilan ifodalansa, ekologik samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqarishda chiqindi chiqish hajmining pasayishi, korxona ishlab chiqarish jarayonining atrof muhitga salbiy ta’sirini kamayishi orqali namoyon bo‘ladi (1.4-jadval).

1.4-Jadval

Sanoat korxonalari boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlarining guruhlanishi

Erishiladigan samaradorlik turi	Samaradorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar
Iqtisodiy	Innovatsion loyihani joriy etish asosida korxona daromadi hajmining ortishi; Korxona va u tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligi ko‘rsatkichining yaxshilanishi; Korxonada ishlab chiqarish omillari qaytimi hajmining ortishi



Ilmiy-texnik	Korxona personalining ilmiy-intellektual salohiyatining ortishi; Korxona va uning yollanma xodimlarining innovatsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tajribasining ortishi; Korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning samaradorligi ko'rsatkichining ortishi
Ijtimoiy	Yollanma xodimlarning ish haqi ortishi va korxonada mehnat shartsharoitlarining yaxshilanishi; Korxonada qo'shimcha yangi ish o'rnlari sonining ortishi va ularning barqarorligi; Korxona xodimlari malakasini oshirish, jumladan, ularni o'qitish, kasbiy mahoratini oshirish va h.k
Ekologik	Mahsulot ishlab chiqarishda chiqindilar hajmining kamayishi' Ishlab chiqarish jarayonida atrof muhitga zararli bo'lgan turli zaharli moddalar va gazlar ajralib chiqishi hajmining kamayishi; Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning (tovar va xizmatlar) ekologik jihatdan sofligi

Sanoat korxonalari boshqaruv samaradorligini baholashga qaratilgan ayrim tadqiqotlarda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalilaniladi:

- ❖ korxona boshqaruv faoliyatini moliyalashtirish koeffitsiyenti;
- ❖ korxonada boshqaruv loyihalarini ishlab chiqish uchun sarflangan vaqt sarfi;
- ❖ korxona amaliyotida o'zlashtirilgan boshqaruv usullari samaradorligi ko'rsatkichi.

Yuqorida keltirib o'tilgan sanoat korxonalari boshqaruv samaradorligini baholashning turli ilmiy-nazariy usullarini umumlashtirgan holda, bugungi kunda umumqabul qilingan yagona baholash amaliyoti shakllanmagan degan xulosaga



kelish mumkin bo‘ladi. Sanoat korxonalari boshqaruvi samaradorligini baholash maqsadida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning maqsadi, vazifalari, ob`yekti va uning predmetidan kelib chiqqan holda iqtisodchi olimlar tomonidan turli baholash uslubiyotlaridan parallel ravishda foydalanilishini kuzatish mumkin bo‘ladi. Mazkur vaziyatni inobatga olgan holda, mamlakatimiz amaliyoti uchun xos bo‘lgan nafaqat sanoat korxonalari balki, u xo‘jalik faoliyati yuritayotgan tarmoqning yaxlit holda boshqaruv samaradorligini kompleks baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunda xorij mamlakatlari iqtisodchi olimlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari tomonidan sanoat korxonalari boshqaruvi samaradorligini baholash uslubiyotlarini umumlashtirgan holda korxonaning innovatsion rivojlanishi holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
2. Евдокимова Т.В. Анализ генезиса теоретических подходов к понятию и оценка эффективности // Вестник Томского государственного университета. – 2013. - № 3. – С. 22-27
3. Гонин В.Н., Кашурников А.Н. Совершенствование методики оценки эффективности инновационной деятельности предприятий электроэнергетики региона в условиях ограниченных ресурсов // Вестник Забайкальского государственного университета. – 2013. - № 3 (94). – с. 124-131